

01/1-02-05-94

28.09.2022-y.

«TASDIQLAYMAN»  
Samarqand viloyati statistika  
boshqarmasi boshlig'i v.b.  
Sh. Abdiyev

Samarqand viloyati statistika boshqarmasida 2022-yil 28-sentabrda  
Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha o'tkazilgan navbatdagi yig'ilishi

### BAYONI № 15

2022-yil 28-sentabr

Samarqand shahri

**Raislik qiluvchi:** Sh. Abdiyev Boshqarma boshlig'i v.b.  
**Qatnashdilar:** Boshqarma boshlig'ining o'rinbosarlari,  
Komissiya a'zolari, boshqarma hamda  
shahar, tuman statistika bo'limlari  
xodimlari (ro'yxat bo'yicha)

### KUN TARTIBI

Samarqand viloyati hokimligi tomonidan 2022-yil 26-sentabrda 15-01/125-son bilan tasdiqlangan yig'ilish bayonida belgilangan vazifa va topshiriqlar ijrosini ta'minlash maqsadida viloyat statistika boshqarmasida Men korrupsiyaga qarshiman", "Korrupsiya adolat kushandasi", "Korrupsiyaga qarshi kurash, hammamizning burchimiz", "Korrupsiya mamlakat taraqqiyotiga to'siq", "Korrupsiya taraqqiyot kushandasi", "Korrupsiyaga qarshi birgalikda kurashamiz", "Faqatgina birga korrupsiyani to'xtata olamiz" va "Unutmang, Korrupsiyadan har birimiz jabr ko'ramiz" mavzularini muhokama etish to'g'risida.

(Sh. Abdiyev, A. Suyunov, Z. Davronov, F. Eshonkulov, U. Sadirov, Sh. Abdiyev)

Kun tartibidagi masalalar yuzasidan boshqarma boshlig'i v.b Sh. Abdiyev so'zga chiqib, Samarqand viloyati hokimligi tomonidan 2022-yil 26-sentabrda 15-01/125-son bilan tasdiqlangan yig'ilish bayonida belgilangan vazifa va topshiriqlar ijrosini ta'minlash maqsadida viloyat statistika boshqarmasida Men korrupsiyaga qarshiman", "Korrupsiya adolat kushandasi", "Korrupsiyaga qarshi kurash, hammamizning burchimiz", "Korrupsiya mamlakat taraqqiyotiga to'siq", "Korrupsiya taraqqiyot kushandasi", "Korrupsiyaga qarshi birgalikda kurashamiz", "Faqatgina birga korrupsiyani to'xtata olamiz" va "Unutmang, Korrupsiyadan har birimiz jabr ko'ramiz" mavzulari yuzasidan axboroti eshitildi.

Korrupsiyaga qarshi kurash borasida huquqiy madaniyatni yuksaltirish, poraxo'rlik, ta'magirlik kabi huquqbuzarliklarni aniqlash va ularga qat'iy chek qo'yish, bunday jinoyatlarga qarshi jazo muqarrarligini har bir shaxs bilishi zarurligi, korrupsiya balosining naqadar mudhish illat ekanini tushungan, uni ongli ravishda idrok etgan odam bu jinoyatga qo'l urmasligini ma'lumot o'rnida ta'kidlab o'tdi.

Jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish, davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarida korrupsiyaning oldini olishga doir chora-

tadbirlarni amalga oshirish, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni o'z vaqtida aniqlash, ularga chek qo'yish, ularning oqibatlarini, unga imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni sodir etganlik uchun javobgarlikning muqarrarligi prinsipini ta'minlash kabi vazifalar ko'rsatib o'tilishi hamda korrupsiyaga qarshi kurashishda davlat organlari va boshqa tashkilotlar xodimlarining huquqiy savodxonligini oshirish zarurligini ta'kidlab o'tdi.

Yig'ilish kun tartibidagi masalalarni muhokama qilib,

### **QAROR QILADI:**

1. Samarqand viloyati hokimligi tomonidan 2022- yil 26- sentabrda 15-01/125-son bilan tasdiqlangan yig'ilish bayonida belgilangan vazifa va topshiriqlar ijrosi tizimda rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Boshqarma boshlig'i v.b. Sh.Abdiyevning kun tartibida belgilangan mavzular yuzasidan bergan axboroti tizimda rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

3. Axborot xizmati (Sh.Muhammadiyeva) va Dasturiy texnik-ta'minot va ma'lumotlarni saqlash markazi (U.Sadirov):

Boshqarma veb-saytida korrupsiyaga qarshi kurashishga oid amalga oshirilayotgan ishlar bo'yicha ma'lumotlarni muntazam ravishda yangilab borish vazifasi topshirilsin.

4. Mazkur yig'ilish qarorlari ijrosini nazorat qilish boshqarmaning korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha idoraviy komissiyasi a'zolari zimmasiga yuklatilsin.

**Bayonnoma tuzuvchi**



**X.Xolmo'minov**